

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**FIZIKA VA TEXNOLOGIK TA‘LIM FAKULTETI
TEXNOLOGIK TA‘LIM KAFEDRASI**

**“UZLUKSIZ TA‘LIM TIZIMIDA YOSHLARNI O‘QITISHGA
YO‘NALTIRISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI”**

Respublika ilmiy – nazariy anjumani materiallari

Jizzax 2022- yil 19-aprel

UDK: 378.0(07)052

“Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni o’qitishga yo’naltirishning muammo va yechimlari” Respublika ilmiy – nazariy anjumani materiallari.

Jizzax - 2022. – 476 bet.

Mas’ul muharrir:

Yusupov Muxammad Maxmudovich – pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori. PhD.

Tahrir hay’ati:

Sodiqov X.M., Ismoilov D.J., Murtazayev M.M., Ubaydullayev S.,
Tog’ayex X., Nizomov Sh.Sh., Aliboyev T.Ch., Axmedova G., Ortiqova O. Sh.,
Alqorov Q.X., Orishev J.B., Doniyorova Sh.E., G’ofurova A.

Taqrizchilar:

Muslimov Narzulla Alixanovich - pedagogika fanlari doktori, professor.
Bekmirzayev Raxmatilla Nurmuradovich - fizika-matematika fanlari doktori,
professor.
Xamidov Jalil Abdurasulovich - pedagogika fanlari doktori, professor.

Maqolani to’plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Texnologik ta’lim kafedrası o’qituvchilari: Rasul Burxonov,
Mirjalol Yo’ldoshev

Texnik kotiblar:

Jo’rayev Shukrullo, Qushmurodova Dilshoda

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi
101-F sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan reja asosida nashrga tavsiya etilgan.

КИРИШ СЎЗИ

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ташаббуси билан педагог кадрлар педагогик махоратини ошириш ҳамда ривожлантириш борасида кўплаб салмоқли ишлар амалга оширилмоқда. Бу ишларнинг аҳамияти Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Юқори синфларда болалар шахс бўлиб, жамоа бўлиб шаклланади. Айни ўша пайтда уларни ўзлари ўрганган муҳитдан ажратиб қўймаслик керак. Бу ёшларнинг руҳиятига, давоматига, охир-оқибатда таълим-тарбиясига салбий таъсир қилиши мумкин. Шу боис таълим жараёнининг услуксизлигини таъминлаш зарур” деган фикрларида тўлиқ ўз ифодасини топган.

Ўзбекистон Республикасида таълим соҳасида бўлаётган ўзгаришлар давлатимизнинг истиқболини таъминловчи асосий омиллардан бири сифатида жаҳон оммаси томонидан эътироф этилмоқда. Ўз навбатида “Таълим тўғрисида” ги қонуннинг қиммати унда ҳар бир шахсни жамият эҳтиёжига жавоб берувчи касб эгаси қилиб тарбиялашга асосий эътибор қаратилганлиги билан белгиланади. Ушбу асосда олий таълим муассасаларининг технологик таълим йўналиши мутахассис ўқитувчиларини педагогик фаолиятига тайёрлаш ишларининг самарали йўлга қўйилиши таълим ислохотлари мувоффақиятини таъминловчи муҳим омил вазифасини ўтайди.

Республикамизда узлуксиз таълим тизимида ёшларни ўқитиш, турли соҳаларда самарали меҳнат қилишга, касб-ҳунарларни онгли равишда танлашга тайёрлаш бўйича қўйган ижтимоий буюртмасини бажаришда технология фани ўқитувчисининг роли беқиёсдир. Давлат аҳамиятга молик ушбу вазифани бажариш учун фан ўқитувчиларидан билим, кўникма ва малакаларини, касбий компетенцияларини такомиллаштиришни ҳамда динамик равишда ривожланиб бораётган педагогик жараён талаблари даражасида педагогика, психология, методика фанлари ютуқлари, замонавий техника ва илғор технологиялар, ишлаб чиқариш ва бозор иқтисодиёти муносабатлари бўйича мукамал билимлар, кўникмаларни эгаллашни тақозо этади. Шу муносабат билан узлуксиз таълим тизимида ёшларни ўқитишни такомиллаштириш жараёнининг дидактик шарт-шароитларини аниқлаш, мувофиқ равишда унинг шакл, тур, усул ва воситаларини оптимал танлаш асосида методикасини ишлаб чиқиш, мазмунини бойитиш, соҳага доир мамлакатимиз миқёсида амалга оширилган ташкилий ишларни таҳлили ва бу борада назарда тутилган барча тадбирларни илмий-услубий аснода ташкил этишни талаб қилмоқда.

Узлуксиз таълим тизимида ҳар томонлама етук, ижодкор шахсни тарбиялаш, ўқувчини узлуксиз ривожлантириш учун таълим-тарбия жараёнининг барча босқичларида педагогик тизимнинг таркибий қисмлари ўзаро алоқадорлиги, мувофиқлиги ҳамда истиқболга йўналтирилганлигини таъминлашни тақозо этади. Республикамизда амалга оширилаётган таълим ислохотларида шахснинг ривожланиши узлуксиз жараён сифатида қаралиб, унда ўқув жараёнининг фақат билиш эмас, балки ўзлаштирилган билимларни ижодий талқин қилишни назарда тутувчи ривожлантирувчи таълим ғоялари билан уйғунлашган. Таълимнинг узвийлиги – таълим мазмунининг тизимлиги, изчиллиги ва мантиқан боғлиқлиги таъминланиши, ўқувчилар ўзлаштирган билимларининг кейинги босқичларда кўникма ва малакаларга ўтишига тайёрлаши, таълимнинг ҳар бир босқичида маълум даражада билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришни таъминлашни талаб қилувчи принципдир.

Узвийликнинг моҳияти вақт бўйича индивидуаллаштирилган, ҳар бир шахсга ўзига мос билим олиш шароитларини яратиб бера оладиган таълимга бўлган шахс ва жамиятнинг эҳтиёжларини қониқтириш зарурати билан белгиланади. Республикамизда узлуксиз таълим тизимини ишлаб чиқишда миллий таълим модели илмий ёндошувининг ўзига хос хусусияти шундаки, узлуксиз таълим тизими яхлитликда узвийликда ва узлуксизликда, яъни бир бутун тизим шаклида қаралади. Узлуксиз таълим бозор муносабатлари ва демократик ўзгаришлар шароитида ўзининг тараққиёт йўналиши, принциплари ва қонуниятларига эга бўлган мустақил ижтимоий-иқтисодий категория сифатида тадқиқ этилади.

Абдулла Қодирий номидаги Жиззах давлат педагогика институтида ўтказилаётган “Узлуксиз таълим тизимида ёшларни ўқитишга йўналтиришнинг муаммо ва ечимлари” Республика илмий-амалий конференцияси ҳам айнан Узлуксиз таълим тизимида ёшларнинг таълим-тарбиясини такомиллаштириш, мустақил ижодий фаолиятга йўналтириш, уларни ўқитиш самарадорлигини ошириш ҳамда бўлажак кадрларни салоҳиятли қилиб тайёрлаш тенденцияларини ўз ичига қамраб олади.

Конференция иштирокчиларига омад тилайман!

ЖДПИ ректори. проф. Ш.Шарипов

ta'limiga yetarli e'tibor berilmayapti. Buning asosiy sababi mehnatga tayyorlashning ilgari mavjud bo'lgan dasturlari hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda o'sib borayotgan avlodning qiziqishlari va talablarini qondira olmaydi.

Zamonaviy sharoitlarda o'quvchilarni hayotga va mehnatga tayyorlash tizimi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirilishi lozim.

1. Mehnat ta'limining shakli va mazmunini mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari rivojlanishida zarur bo'lgan kasb-hunarlariga bo'lgan ehtiyojga moslashtirish;

2. Mehnat ta'limi va tarbiyasini o'quvchilarning kasbiy harakatchanligi, mehnat va kasb-hunar bozorida ijtimoiy himoyalantirish muammolariga yo'naltirish;

3. O'quvchilarni shu kungacha maktab amaliyotiga kirgan yangi texnologiyalarga o'rgatishni ta'minlash;

4. Mehnatga tayyorlash va iqtisodiy ta'limning uzviylikini ta'minlashning tashkiliy-pedagogik tomonlarini bevosita faol jarayonida amalga oshirish.

Mehnat ta'limini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha islohotlarni amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar yaratilmog'i lozim:

Bugungi kundagi texnologiya fanini o'qitishdagi muammolar asosan ta'lim turlari ya'ni maktabgacha ta'lim, boshlang'ich, 5-9 sinflarda texnologiya fani dasturlarida, o'rta maxsus ta'limdagi uzilishlar, texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlovchi oliy pedagogik ta'limdagi umumkasbiy va mutaxassislik fanlarida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlanmaganligidan yuzaga kelmoqda deb aytish mumkin. O'quv dasturlarini takomillashtirish xamda uzviylikini va uzluksizligini ta'minlash orqali ushbu muammolarga yechim topish va texnologiya fanini o'qitish samaradorligiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "Ozbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakteristik strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.

2. Mirziyoev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada xamjixat bo'lib, qat'iyat bilan xarakter qilaylik. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 16 iyun.

3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: "O'qituvchi" 2009. - 174 b.

4. Yo'ldoshev X.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: "O'qituvchi", 2004. - 236 b.

5. Shomirzaev M.X., Karimov I.I. Texnologiya fanini o'qitishda innovasion pedagogik texnologiyalar. - T.: "Universitet", 2020. - 58-65 b.

TALABALARNING KIYIMLARNI LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISHGA OID MAXSUS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

*Sodiqova A.H. - tayanch doktorant. "Texnologik ta'lim"
kafedrasida Buxoro davlat universiteti.*

Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning maqsadi munosib hayot sharoitlarini yaratish, ma'naviy jihatdan barkamol yetuk rivojlangan insonni tarbiyalash,

ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, milliy ana'nalarimizga sodiq yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, oliy o'quv yurtlarida, professional ta'lim tizimida, umumta'lim maktablarida, maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat yurituvchi malakali kadrlar tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu jumladan oliy ta'lim muassasalari "Texnologik ta'lim" yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kiyimlarni loyihalash va modellashtirishga oid kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologik ta'lim o'qituvchisining dars mashg'ulotlaridagi, to'garak ishlaridagi olgan chuqur bilimlari mustaqil ishlash, amalda qo'llash va yangi loyihalarni yaratishlarida, izlanishlarida katta ahamiyat kasb etadi. Kiyimlarni loyihalash va modellashtirish haqida ma'lumotlar talabalarga tushunarli, kiyim kompozitsiyasining asoslari, xususiyatlari va kompozitsiya vositalari, uy kiyimini, kundalik va bashang kiyim modellarini loyihlash va modellashtirish, badiiy bezash asoslari inobatga olgan holda o'qitilishi lozim. Xususan, G.K.Xasanbaeva, I.O.Krimova, G.V.Skachkova, L.V.Martoplyas, A.P.Rogova, L.P.Sherstnevalarning ishlari ana shunday fanning nazariy asoslarini aks ettirgan. Amaliy mashg'ulotlarda talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, kiyim madaniyati tushunchasini kengaytirish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish, kiyimning asosiy andozalarini tayyorlash, modellar yaratish, asosiy andozalardan model andozalarini chiqarish va unga bezaklar tanlash mazkur sohaning asosiy maqsadidir. Loyihalash – bu murakkab ijodiy jarayon bo'lib, unda har qanday buyumning, jumladan, kiyimning ham loyahasini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Kiyimni loyihalash deganda, kiyimni tashkil etadigan detallar va materiallar kompleksi, shuningdek ularni o'zaro ulab-tikib, muayyan o'lchovdagi va shakldagi yaxlit buyum holiga keltirish usullari, vositalari tushuniladi. Loyihalash jarayonida buyumning hajmli detallarini tekislikdagi tasvirini hosil qilishdan iborat bo'ladi. Detailarning razmeri, soni va shakli ular yig'ilganda xuddi shu razmer va ko'rinishini beradi. Kiyimlarni loyihalashda gavdadan o'lchov olish qoidalari va o'lchovlar asosida buyum asos chizmasini chizish, so'ng chizmadan andoza chiqarib tayyorlash qoidalarini o'rgatiladi. Kiyimni loyihalash bilan turli muassasalar shug'ullanadi. Bular - modalar uyi tikuvchilik korxonalarining eksperimental sexlari, maxsus loyihalash idoralari, ilmiy-tekshirish institutlari va laboratoriyalardir. Kiyimlarni modellashtirishda kiyim modelini ijod qilish va asosiy andozadan model andozasini tayyorlash yo'llari o'rgatiladi. Bunda asos chizmasiga eskiz bo'yicha model chiziqlari kiritilib, yangi model andozasi hosil qilinadi.

Kiyimlarni badiiy bezashda esa kiyimga turli bezaklarni kiyim turiga va vazifasiga qarab berib, ularni bezatish yo'llari o'rgatiladi. Bunda kiyimning assortimentiga, gazlamasiga, kiyimning kimga mo'ljallanganligiga qarab, bezak elementini tanlash ijodiy jarayon ekanligi yaqqol ko'rinadi. Kiyim odam tashqi qiyofasini o'zgartirishda katta rol o'ynaydi. U qiyofani 60% gacha o'zgartiradi. Kiyim kishining badiiy didini ifodalaydi, madaniy saviyasini belgilaydi, shaxsni xarakterlaydi. Kiyim kishiga nisbatan turli his-tuyg'ular uyg'otadi. Masalan: jiddiylilik, vazminlik, jo'shqinlik, sovuqlik, oddiylilik va boshqalar. Dunyo ta'lim tizimida ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar, loyihalar olib borilmoqda, ayniqsa bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kasbiy tayyorgarlikning barcha komponentlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatimizda ham pedagogik kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida ta'lim muassasalarida zamonaviy moddiy texnik baza yaratilgan hamda innovatsion ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan. Globallashtirish va xalqaro integratsiyaning rivojlanishi, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarning kengayishi bilan bog'liq holda kasbiy kompetensiyalar bo'yicha

axborotlarning ham tezkor almashish imkonini beradigan mexanizmlar zarur bo‘lmoqda va bu masalalar mazkur mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Oliy ta‘lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern – yangilangan, zamonaviy, tezkor o‘shish) ta‘lim jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. V.A.Slastenin pedagogik jarayonga innovatsion yondashishni o‘qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o‘qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni va shakliga yangilik kiritish bilan izohlaydi. “Kompetentlik” tushunchasi ta‘lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Vazirlar Maqkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat Ta‘lim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati sifatida ta‘rif berilgan. Oliy ta‘lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishdagi muhim komponentlardan biri – o‘qituvchining kasbiy kompetentligi va innovatsion faolligi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat sub‘ektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, sub‘ektning aniq faoliyatning o‘ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo‘llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F.Zeer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog‘ida kompetentlikning turli ko‘rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatleri bilan aloqasi kuchayib borishini ko‘rsatadi. Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o‘zini-o‘zi anglash, o‘z kuchiga ishonish, o‘zga insonlar tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni to‘g‘ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o‘ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to‘liq izohlanishiga imkon beradi. Kasbiy kompetentlikda mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi nazarda tutiladi. Bu tushuncha bo‘yicha turlicha ta‘rif va yondashuvlar mavjud. N.M.Muslimovning fikriga ko‘ra, “kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni ifodalaydi. V.I.Andreevning fikricha, kompetensiya ma‘lum o‘quv, kasbiy va boshqa majmuaviy masalalarni hal qilishda namoyon bo‘luvchi, rivojlanib boruvchi integral ko‘rsatkichlar bo‘lib, u shaxsning ijobiy motivatsiya, bilim, mahorat, iqtidor va ijodiy faoliyat tajribasini o‘z ichiga oluvchi tayyorgarlik darajasidir. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi kasbiy-pedagogik kompetentligini, xususan kiyimlarni loyihalash va modellashtirishga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodika pedagogik bilim, malaka va shaxsiy sifatlarining ayni paytdagi mavjud darajasi va bu kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan istiqbol vazifalar keltirilib o‘tilgan bo‘lishi tavsiya etiladi. Bu o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy jihatdan rivojlanish dinamikasini turli darajalarda doimiy monitoring qilib borishda samarali faoliyat maxsuli bo‘lib, buning natijasida pedagog kasbiy kompetentligiga katta e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan kompetentlik qismlari yaqqol ko‘rinadi va bu uni rivojlantirishga turtki beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Diss. ped. fan. dok. (DSc). -Toshkent, 2019. -146 b.

2. A. H. Sodiqova.(2020). Modern equipment of laboratory rooms on the subject of technology. Theoretical & Applied Science, 5, pp. 659-662.

3. A.H.Sodiqova ,(2019). Priznaki protsessa obucheniya. Uchenyy XXI veka. pp. 47-49.

O'QUVCHILARNI HUNARMANDCHILIK BO'YICHA YARATUVCHANLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI

Nizomov Sh. Sh.- katta o'qituvchi, Texnologik ta'lim kafedrası.
Baymurzayeva O. Sh.- katta o'qituvchi. Tasviriy san'at muhandislik grafikasi kafedrası. Jizzax davlat pedagogika instituti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarni hunarmandchilik bo'yicha yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoning ketma-ketligi masalasi ustida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yaratuvchanlik, qobiliyat, rivojlantirish jarayoni, hunarmandchilik, ijodkorlik, shakllantirish, faraz qilish.

O'quvchilarni hunarmandchilik bo'yicha yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni hunarmandchilik tarmoqlari bo'yicha ijodkorlikning turlari, shakllari va uni tashkil etish usullari, shuningdek o'quvchilarni hunarmandchilik bo'yicha ijodkorlikka tayyorlash nazariyasi va uning rivojlanish qonunlari hamda uning natijalarini amalga tadbir etish tamoyillarini nazarda tutadi.

Ushbu maqolada o'quvchilarni hunarmandchilik bo'yicha yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoning ketma-ketligi ko'rib chiqiladi.

O'quvchilarni hunarmandchilik bo'yicha yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatlari ham xuddi boshqa pedagogik faoliyatlar singari falsafaning dialektik va tarixiy materializm qonunlariga asoslangan o'zining maxsus yo'nalishlariga ega va bu yo'nalishga xususan quyidagilar kiradi[1.48 b.]:

-ijodkorlikda izlanish, intilish, tekshirish uslublari ilg'or pedagoglar tajribasini o'rganish va umumlashtirish masalalari tahlili;

-ijodkorlik masalalarini echishning pedagogik asoslarini qiyosiy tahlil qilish;

-o'quvchilarning hunarmandchilikka oid yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning ob'ektiv tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlash;

- aytilganlar asosida istiqbolli rejani belgilab olish va uni amalga oshirish.

Bu muhim masalalar o'quvchilarni hunarmandchilik bo'yicha yaratuvchan ijodkorlik faoliyatga tayyorlash jarayonini ilmiy tashkil etish asosida hal etiladi va o'ziga xos ikki jihatga ega[2.12b.]:

Birinchi jihat - hunarmandchilikdagi yaratuvchan tavsifga ega bo'lgan nazariy va amaliy muammoli masalalarni o'qituvchi tomonidan yoritilishi va o'quvchilar tomonidan uzlashtirilishi nazarda tutadi.

Ikkinchi jihat-o'quvchilarning rahbar tomonidan berilgan ishni hal qilishga oid bilimlardan unumli foydalanadigan yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Jumladan, hunarmandchilik bo'yicha o'quvchilarning dasturini tahlil qilish uning hozirgi zamon milliy hunarmandchiligi bilan texnologik va tashkiliy tavsifdagi yaratuvchan ijodkorlikka asoslangan hunarmandchilik tarmoqlari bo'yicha aloqa bog'lash uchun ko'plab